

TA'LIMNI AXBOROTLASHTIRISH SHAROITIDA BO'LAJAK PEDAGOGLARNING AKMEOLOGIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK TIZIMI

Sharofutdinov Iqboljon Usmonjon o'g'li

Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7841977>

Annotasiya: Mazkur maqolada ta'limni axborotlashtirish sharoitida bo'lajak pedagoglarning akmeologik kompetentligini rivojlantirishni mexanizmlarini takomillashtirishning pedagogik tizimi rivojlantirish, shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashtirish alohida yoritib berilgan.

Kalit so'z va iboralar: Insonparvarlik psixologiyasi, mustaqil ta'lim, zamonaviy dunyoqarash, ijtimoiy zarurat, akmeologik kompetentlik, akmeologik pozitsiya, innovatsion va raqamli, bozor iqtisodiyoti, Ta'lim va tarbiya, ilmiy-metodik.

Kirish. Bo'lajak o'qituvchining yetuk mutaxassis sifatidagi akmeologik kompetentligini rivojlantirish o'sib kelayotgan yoshlarni mehnat faoliyatlarida o'z o'rnini topishlariga, sifatli ta'lim olishlariga, shaxslararo ijtimoiy-madaniy muloqotlarini shakllantirishga yordam berishi kerak, biroq bunda eng muhimi – shaxsni talabga to'la javob beradigan darajada rivojlantirish va uning o'z imkoniyatlarini amalga oshirishi uchun zaruriy sharoitlarni yaratish dolzarb muammodir. Aynan shuning uchun pedagoglar tayyorlash ta'lim jarayonining asosiy vazifasi bo'lajak o'qituvchini kasbiy-pedagogik tayyorgarligining ajralmas qismi bo'lgan akmeologik kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Respublikamizda bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik, akmeologik kompetentlikni rivojlantirish, shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashtirishga alohida e'tibor qaratilib, tarbiyachi – ustoz bo'lish uchun, boshqalarning aql-idrokini o'stirish, ma'rifat ziyosidan bahramand qilish, haqiqiy vatanparvar, haqiqiy fuqaro etib yetishtirish uchun, eng avvalo, tarbiyachining ana shunday yuksak talablarga javob berishi, ana shunday buyuk fazilatlariga ega bo'lishi kerak, degan xulosaga kelindi. Natijada pedagogika oliy ta'lim muassasalari bo'lajak o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlashning amaliy-texnologik tizimi takomillashtirildi. Shu bilan birga bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik kasbiga aksiologik munosabatni qaror toptirish, kasbiy kompetentlikni shakllantirishda O'zbekiston Respublikasini yana-da rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida Ta'lim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta'lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish kabi vazifalar belgilab berildi.[1:71] Bu esa, pedagog-kadrlarni tayyorlashning ustuvor yo'nalishlarini aniqlashtirishni talab etadi.

Ta'lim va tarbiya jarayonida individual munosabatda bo'lishning sharti o'quvchining psixologik xususiyatlarini har tomonlama va chuqur bilishdan iboratdir. Bu narsa o'quvchining ruhiy dunyosidan xabardor bo'la bilishni, psixologik jihatdan to'g'ri kuzatish tashkil qila bilishni va tabiiy eksperiment uyushtirishni bilishni taqozo qiladi. Mana shu yuqorida ko'rsatilgan qonuniyatlarni hammasini bilish o'zo'zicha hali ta'lim-tarbiya ishlarida muvaffaqiyatning garovi bo'la olmaydi. Lekin juda ko'p xatolarning oldini olish imkonini beradi, chunki bu qonuniyatlar o'qituvchini ko'r-ko'rona harakat qilish zaruratidan qutqaradi. Demak, pedagogik psixologiyaning mohiyatini bilish har bir pedagog uchun ta'lim-tarbiya jarayonini samarali amalga oshirish uchun zarur.

Insonparvarlik psixologiyasi vakillari shaxsning qadriyatlar tizimi xususiyatlarini birinchi o'ringa qo'yadilar va kommunikativ kompetentlik eng avvalo, muloqotga kirishuvchilarning

samimiyligi, ochiqligi, shaxs rivojlanishiga imkon beruvchi muloqot ko'nikmalarini egallaganligiga bog'liq, deya ta'kidlaydilar.

Turli ijobiy psixologik amaliyot namunalarini qo'llash orqali insonning psixologik salohiyatini yuksaltirishga yo'naltirilgan hozirgi zamon psixologiyasi ayrim namoyandalari esa muloqotga shaxs faoliyat jarayonida o'z xatti-harakatlarini boshqarishining sub'yektiv modellarini aprobeziya, sinovdan o'tkazish va taqdim qilishi uchun makon sifatida qaraydilar. Bunda kommunikativ kompetentlik shaxsda sub'yektiv nazorat malakalarining rivojlanganligi, dunyoqarashning pozitiv shakli tarkib topganligi, muvaffaqiyatga nisbatan intilish, yo'l-yo'riqlarning shakllanganligi, munosabatlarni maqsadga muvofiq yo'lga qo'yish qobiliyatining mavjudligida namoyon bo'ladi. Individning ichki psixologik muhitini yaxshilashga esa kommunikativ kompetentlikni ta'minlashning garovi sifatida qaraladi.[2:10]

Adabiyotlar tahlili va metodologiya (литература и методология /Methods).

O'qituvchida kompetentlikni shakllantirishga nisbatan psixologik tayyorlik, hozirlikning o'ziyoq mazkur jihat tezroq va samaraliroq tarkib topishiga sabab bo'lishi tadqiqotlarda isbotlangan. Shuning uchun o'qituvchi va pedagoglarda kompetentlikka tayyor bo'lishni rag'batlantirishga ham e'tibor qaratish lozim.

Psixologik nuqtai nazardan tayyorgarlikning motivasion, hissiy, axloqiy, kognitiv va xulqiy darajalari mavjud. Tayyorgarlikning faollashuvi shaxs tomonidan mazkur darajalar o'zaro bog'liq, bir butun holda anglangan, idrok etilgandagina yuz beradi. Psixologik tayyorgarlikni quyidagi jihatlarni qamrab oluvchi murakkab dinamik tuzilma sifatida tavsiflash mumkin: · pedagogik faoliyat sub'yektiga xos individual ehtiyoj va talablar, kasbiy vazifalarni anglash; kompetentlikni rivojlantirish maqsadlarini tushunish;

faollik namoyon bo'ladigan shart-sharoitlar, muayyan vazifani bajarish bilan bog'liq tajribani baholash va anglash, esga tushirish;

shaxsiy tajriba tahlili va psixologik imkoniyatlari doirasida berilgan topshiriqlarni bajarish uchun eng maqbul usul va vositalarni topish, o'zini o'zi nazorat qilish.

Kasbiy psixologik kompetentlikni rivojlantirish psixologik bilim, malaka va ko'nikmalar hajmi, miqdorigagina emas, balki sub'yektning kompetentli kasbiy xulq modelini o'zlashtirish va hayotga tatbiq etish borasidagi intilishlariga bog'liqligi xususida ko'plab fikrlar bayon qilingan. Bunda muayyan individual sub'yekt, shaxsning qadriyatlar yo'nalishi, tafakkur tarzi, dunyoqarash, e'tiqod, ideallari, Men-konsepsiyasi, o'zini o'zi anglashi, kompetentli bo'lishga nisbatan motivasiyasi xarakteri muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, motivasion xususiyatlar mazmuni kompetentlik samarasini belgilashda ahamiyatlidir.

Umumiy holda professional psixologik kompetentlik rivojining mezonlarini ham ko'rsatib o'tish mumkin. Ular quyidagilardir:

- psixologik-konstruktiv professional qarorlar qabul qilishga imkon beradigan psixologik bilimlarning keng qamrovliligi va chuqurligi;
- psixologik bilimlarni professional faoliyatda joriy qilish imkoniyati, malaka va ko'nikmalariga egalik;
- psixologik-kompetentli xulq-atvorning turg'unligi;
- kompetentlik konseptual, taktik va operativ darajalarining integratsiyalashganligi, ya'ni nazariya va amaliyot birligini amalda maqsadga muvofiq qo'llash;
- o'z hissiyotlarini real voqeelikka psixologik jihatdan konstruktiv muvofiqlashtirishni uddalash;

- professional muvaffaqiyatlar, psixologik salomatlik va o‘z faoliyatidan qoniqish yuksak ko‘rsatkichlarining mavjudligi;
- o‘zaro hamkorlik sharoitlarida kompetentlikni namoyon qilish me‘yori va shakllarining adekvatligi.

Kompetentlikni rivojlantirish jarayoni individual bo‘lib, har bir shaxsning o‘ziga xosdir. Ayrim kishilar mazmuniy komponentlarga e‘tiborni qaratadilar, ularni eng avvalo, nazariy jihatdan psixologik ma‘lumotlar qiziqtiradi. Bu esa ularning psixologik jihatdan savodxon bo‘lishlarini ta‘minlaydi, biroq kompetentli xulq-atvorli bo‘lishlariga imkon bermaydi. Yana bir xil insonlar psixologik usul, vositalar, o‘zaro ta‘sir sirlarini o‘rganishga qattiq harakat qiladilar, biroq ularning nazariy asoslariga diqqatlarini qaratmaydilar. Bu esa avtoullov boshqarishni yuzaki bilsa-da, uning tuzilishi, boshqaruv qoidalari va tamoyillaridan to‘liq xabardor bo‘lmagan kishining yaxshi haydovchi hisoblanmagani kabidir.

Bo‘ljak o‘qituvchining akmeologik kompetensiyasini takomillashtirishni professionallik tizimining elementi sifatida ko‘rib chiqamiz va uni oliy o‘quv yurtlarida o‘qitish jarayonida uning rivojlanish imkoniyatlarini o‘rganamiz, shuning uchun bo‘ljak o‘qituvchining akmeologik kompetensiyasini takomillashtirish uchun psixologik va pedagogik sharoitlar orqali biz muhim vaziyatlarni nazarda tutamiz.

Natijalar (Результаты/Results).Bo‘ljak o‘qituvchining akmeologik kompetensiyasini oshirish uchun psixologik va pedagogik sharoitlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. Bunday shartlardan biri bu o‘quv sub’yektlarini yaratish va ijodiy o‘zini o‘zi amalga oshirish jarayoniga jalb qilishni ta‘minlaydigan o‘quv innovatsion muhitini yaratishdir. Innovatsiya yangi samarali algoritmlar va faoliyatni amalga oshirish usullarini ishlab chiqishda, ta‘lim muammolarini yechishda namoyon bo‘ladi. O‘qituvchi zamonaviy ilmiy bilimlar, samarali tajriba va ijodiy izlanishlar mavjud bo‘lgandagina mumkin bo‘lgan o‘qitish va tarbiya usullarini doimiy ravishda takomillashtirish sharoitida joylashadi. Yaratilish jarayonida ishtirok etadigan sub’yektlarning faolligi, xatarlarni qabul qilishga tayyorligi va ular shug‘ullanadigan faoliyat uchun qiymat munosabatlarini shakllantirish mavjud bo‘lganda innovatsiyalar paydo bo‘ladi. Ijodiy izlanish muhitini yaratish, bilim obro‘-e‘tiborini oshirish, qo‘shimcha ma‘lumot izlashni rag‘batlantirish, mehnatga bo‘lgan hurmat o‘zini takomillashtirishga olib keladigan kuchli turtki.

2. Bo‘ljak o‘qituvchining akmeologik mahoratini oshirish uchun zarur bo‘lgan navbatdagi shart bu subektiv pozitsiyani va shaxsiy ma‘noni rivojlantirishdir. Bo‘ljak o‘qituvchi uchun sub’yektivlikka erishish bu nafaqat belgilangan maqsadga erishish, balki o‘zini takomillashtirish sari doimiy harakat qilishdir. Shu nuqtai nazardan, “akme” bu keyingi harakatning yangi ufqlari ochiladigan cho‘qqidir. Akmeologiya nuqtai nazaridan mustaqillik, tashabbus va javobgarlikdir.

K.A.Abulxonovanning fikriga ko‘ra, subektivlikning asosiy mezoni bu odamning har xil qarama-qarshiliklarni hal qilish qobiliyatidir. Bular insonga qaratilgan qobiliyatlar, shaxsiyat va jamiyat va hayotning talablari o‘rtasidagi qarama-qarshiliklardir.[3:335] Bu shaxsning da‘volari va harakatlari va ularning natijalari o‘rtasidagi qarama-qarshilik.

3. Bo‘ljak o‘qituvchining akmeologik mahoratini oshirishning eng muhim pedagogik sharti maxsus intellektual qobiliyatlarni o‘stirishdir: tushunish, qayta ko‘rib chiqish, oldingi ma‘nolarni obro‘sini yo‘qotish, ma‘no manbalarini izlash, ma‘nolarning sabab va intuitiv aloqalarini o‘rnatish va boshqalar.[4:10]

4. Bo'lajak o'qituvchining akmeologik kompetensiyalarini rivojlantirishning navbatdagi psixologik va pedagogik sharti bu "o'zini" aktuallashtirishdir. Buning uchun o'qituvchi va talaba o'rtasida ishonchli munosabatlarni yaratish kerak. Kamroq tanqid qilish kerak, agar tanqid qilsangiz, ijobiy bo'lsa, erishilgan natijalarga norozilik bildirmaslik, axloqiy tarbiya bilan shug'ullanmaslik, aksincha talabani ko'proq ma'qullash, uning ichida va tashqarisida bo'ladigan barcha narsalarga ijobiy munosabatda bo'lish tavsiya etiladi. Talabaga hurmat, o'z muammolarini uddalashda uning potensial qobiliyatini tan olish, uning o'ziga xosligi va ichki ahamiyatini anglash uning "o'zini" anglashiga yordam beradi.

5. Ijodiy tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan muammoli o'qitish usullaridan foydalanish pedagogik, psixologik, akmeologik va boshqa fanlarni o'rganishni tashkil qilishning asosiy usuliga aylanishi kerak.

Bo'lajak o'qituvchining akmeologik kompetentligini takomillashtirish jarayoni asosiy psixologik va pedagogik shartlarga rioya qilingan holda muvaffaqiyatli amalga oshirildi. Masalan: ta'lim va tarbiya jarayonini insoniylashtirish; innovatsion ta'lim muhitini yaratish; ta'lim va kelajakdagi kasbiy faoliyatda sub'yektiv pozitsiyani va shaxsiy ma'noni rivojlantirish; muammoli o'qitish usullari; o'zini o'zi aktuallashtirish; dialogik aloqalar.

Muhokama (Обсуждение/Discussion). Umumiy psixologik va pedagogik sharoitlarga qo'shimcha ravishda, xususiylar aniqlandi va amalga oshirildi, bular quyidagilar: bo'lajak o'qituvchining akmeologik kompetensiyasini oshirishga qaratilgan materialning mazmuni; akademik fanlarning kasbiy yo'nalishi; talabalarning o'quv va bilim faoliyati ustidan joriy nazorat; takomillashtirishni bosqichma-bosqich baholash; talabalarning ijodiy va reflektorlik faoliyati murakkabliklarining izchilligi va ketma-ketligi; kasbiy faoliyatning real vaziyatlarini modellashtirish va baholash mezonlari, uslubiy ta'minot, nazorat va sozlashni o'z ichiga oldi. Bo'lajak o'qituvchining akmeologik kompetensiyasini shakllantirish jarayonining texnologik xususiyatlariga muvofiq takomillashtirishni ta'minlash: simulyatsiya qilingan jarayonning asosiy maqsadini aniqlash, o'quv materialini tanlash va tuzish, uning muammosi. Ijodiy fikrlashni rivojlantirish uchun muammoli, inversiya usullari qo'llanilgan. Talabalar bahs-munozaralar, bahs-munozaralar, tahlil va hokazolarga jalb qilindi, talabalarning fikrlash qobiliyati, moslashuvchanligi, o'ziga xosligi, mahsuldorligi uchun sharoitlar yaratiladi. [5:237-239]

Bo'lajak o'qituvchi eng avvalo, mulohazali, bosiq, har qanday pedagogik vaziyatni to'g'ri baholay oladigan hamda mavjud ziddiyatlarni bartaraf etishning uddasidan chiqa olishi kerak. Muloqot jarayonida o'qituvchining so'zlaridan suhbatdoshiga nisbatan xayrixohlik, samimiylik, do'stona munosabat, yaxshi kayfiyat sezilib tursin.

Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisining kasbiy mahorati quyidagilarda aks etadi:

- O'qituvchi - tarbiyachining pedagogik qobiliyati.
- O'qituvchining muaomala madaniyati va nutq san'ati.
- Pedagogik nazokat, odob va axloq.
- Turli kelib chiqadigan pedagogik vaziyatlarga munosabat.
- O'z-o'zini tarbiyalash va o'z ustida ilmiy ijodiy ishlash masalalari.

Bo'lajak mahoratli texnologiya fani o'qituvchisi o'zini mahorat egasi sanasa u quyidagi bilim, ko'nikma, malakalarni egallagan bo'lishi zarurdir. O'qituvchi dunyoqarashi keng, hamma voqea, hodisa ustida erkin fikr yurita olishi zarurdir.

1. Yangi O'zbekiston o'qituvchisi birinchi galda o'zi o'qitadigan fanni chuqur egallagan bo'lgandagina o'quvchilarda umumiy va kasbiy ta'lim sifatini oshira oladi va ularda fan-texnika hamda amaliy faoliyaga qiziqish va istak hosil qila oladi.
2. O'qituvchi hozirgi zamon fan-texnika talabiga muvofiq yaxshi dars berishi va uning har minutdan unumli foydalanishi zarur.
3. O'qituvchi yaxshi o'qituvchi bo'lishi uchun pedagogika, psixologiyaga qo'shib, o'z fanining metodikasini yaxshi bilmog'i lozim.
4. O'qituvchining umumiy madaniyati yuqori bo'lishi bilan birga bu kasb adabiyot va san'at sohasidagi bilimlarga ega bo'lishni talab qiladi.[6:421]

O'qituvchi pedagogik faoliyati jarayonida nafaqat o'zini kompetentli his qilishi, balki atrofdagilarga bu xususiyatini namoyish qilishi, isbotlashi ham zarur, deb hisoblaymiz. U kompetentli mutaxassis sifatida tan olinishi kerak. Zamonaviy ta'lim konsepsiyasi xuddi shu jihatga urg'u bermoqda, e'tibor qaratmoqda.

Shunday qilib, real vaziyatlarda, pedagogik jarayonlarda o'qituvchi kompetentligi o'quvchiga maqsadga muvofiq ta'sir ko'rsatib, unda ijobiy motivasiyani hosil qilishi ham yoki aksincha, psixologik tormoz vazifasini bajarib, bola kompetentligi rivojiga to'sqinlik qilishi ham mumkin.

Xulosa Xulosa qilib aytganda rivojlanish va o'zini o'zi rivojlantirishning akmeologik prinsiplari, kasbiy rivojlanish mexanizmlari to'g'risidagi bilimlarni tizimlashtirish uchun "Bo'lajak o'qituvchining kasbiy va shaxsiy rivojlanish asoslari" maxsus seminar dasturi ishlab chiqish ta'limining nazariy va amaliy jihatlarining ajralmas asosi, o'zini o'zi rivojlantirishning asosi bo'ladi.

Bo'lajak o'qituvchilarning shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonini loyihalash va tashkil etishga oid ko'nikmalari darajasini o'rganish doirasida belgilangan vazifalarga muvofiq tarzda qo'llaniladigan metodlar bir necha guruhlariga bo'linadi. Ular:

- kasbiy faoliyatning psixologik xususiyatlarini aniqlashga xizmat qiladigan metodlar;
- kasbiy pedagogik faoliyatni tashxislash metodlari (miqdor ko'rsatkichlarini aniqlash maqsadida);
- tadqiqotchilik metodlari; bunday metodlardan bo'lajak o'qituvchilarning ruhiy holatlarini aniqlash maqsadida foydalaniladi;
- bo'lajak o'qituvchilar kasbiy pedagogik faoliyatlari rivojlanishini aniqlash maqsadida shakllantiruvchi metodlardan foydalaniladi.[7:21]

Shunday qilib, kasbiy o'zini o'zi faollashtirish bo'lajak o'qituvchi akmeologik kompetensiyasining mexanizmi bo'lib, uning o'z professional xususiyatlarini tan olish, o'qitish jarayonida va keyingi kasbiy faoliyatida faol namoyon bo'lishga qaratilgan.



4-расм. Касбий тайёргарликда инновацион- акмеологик муҳит тузилмаси

Bo'lajak o'qituvchilarning tayyorgarlik darajalari:

1. Reproductiv daraja talaba tushunchalar mohiyatini reproductiv darajada ifodalaydi; ilmiy bilish metodlarini yetarlicha egallamagan, ularni pedagogik amaliyotda faqat qisman qo'llay oladi, kasbiy yaxshi rivojlanmagan.
2. Produktiv daraja talaba ijodkorligining mohiyati haqidagi tasavvurlar mavjudligini nazarda tutadi. Ammo bu tasavvurlar cheklangan va mustaqil pedagogik faoliyat olib borish uchun yetarli emas, talaba o'qituvchi rahbarligida mashg'ulotni o'tkazishda keyinchalik qo'llash mumkin bo'lgan yangi bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishga motivatsiyasi mavjud.
3. Qisman izlanishli darajada talabaning kasbiy faoliyat munosabati bilan xarakterlanadi. U pedagogik metodlarni egallagan, ularni kasbiy faoliyatida amalda qo'llaydi, yangi g'oyalarni tekshirish prosedurasini ishlab chiqishga qodir.

4. Akmeologik daraja talabning yuksak qobiliyatlari hamda kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini mantiqiy va tizimli tarzda pedagogik faoliyatda qo'llay bilishi, o'z imkoniyatlarini to'g'ri baholay olishi hamda nostandart pedagogik vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qila olishi kabi ko'nikmalarni nazarda tutadi.

Xulosa (Заклучение/Conclusion). Tadqiqotimizda amalga oshirilgan bo'lajak pedagoglarni loyihalashtirish faoliyatiga tayyorlashning muammoli-modulli va maqsadli yondashuvlarni yangi va an'anaviy texnologiyalarni qo'llash bilan integrasiyalaydigan, talabalarning oliy ta'lim muassasasida pedagogik fanlarni o'rganishda har bir o'qish davri xususiyatlaridan kelib chiqadigan texnologiyasi bo'lajak o'qituvchilarni loyihalashtirish faoliyatiga tayyorlash texnologiyasining samaradorligi va maqsadga yo'nalganligini tasdiqladi va uni amaliyotda qo'llash maqbulligini ko'rsatdi.

Bo'lajak o'qituvchilarning akmeologik yondashuvdan foydalanish:

- ta'lim oluvchilarning sog'lig'ini mustahkamlash va saqlash, kasbni muvaffaqiyatli egallashga erishish, ijtimoiy va mehnat faoliyatiga tayyorlanish rivoji, ta'lim va tarbiya masalalarini muvaffaqiyatli hal etish;

- qayta fikrlash, ijodiy tafakkur qilish, ta'lim ichki ehtiyojga aylanishi, barcha sub'yektlarda ta'lim tizimlashtirilgan bilish motivlari bo'lishi, ta'lim-tarbiya jarayonida ta'lim sifatining oshishi imkonini beradi.

Xususan, pedagogik yo'nalishlarda kadrlar tayyorlash sifatiga e'tiborni kuchaytirish, pedagogik ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarida ta'lim olayotgan bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy tayyorgarligining yuksak darajada bo'lishi, ularda pedagogik mahoratning rivojlanishi, o'z-o'zini kasbiy va shaxsiy takomillashtirib borish motivasiyasi, shuningdek, mehnat bozorining talablaridan kelib chiqadigan yangi kasbiy kompetensilarni o'zlashtirish, innovatsion faollik, bir so'z bilan aytganda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishi zarur.

References:

1. Харакатлар стратегияси асосида жадал тараққиёт ва янгилашиш сари. – Т.: Гафур Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2017. – Б.71.
2. Абулханова К.А. Фаолиятвашахспсихологияси. –М.: Наука, 1980.–335 б.
3. Кулневич С.В. Контсепциялардан технологияга қадар шахнинг педагогикаси. Дарслик. - Ростов-Дону: "Ўқитувчи", 2011. – 10 б.
4. Даўкеева А. Бўлажак ўқитувчининг акмеологик компетентлигини такомиллаштириш учун психологик-педагогик шароитлар. "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal - (SI) II/2020. – Б. 236-239.
5. Расулова З. Педагогик дастурий воситалардан фойдаланиб бўлажак технология фани ўқитувчиларининг касбий маҳоратини ошириш йўллари. "Science and Education" Scientific Journal. October 2021 / Volume 2. Issue 10. – Б. 416-421.
6. Маъмуров Б.Б. Акмеологик ёндашув асосида бўлажак ўқитувчиларда таълим жараёнини лойиҳалаш кўникмаларини ривожлантиришнинг педагогик-психологик хусусиятлари. "Psixologiya" ilmiy jurnal. № 2, 2017. – Б. 49. (- Б. 47-52).